



## HAZORASP TUMANIDAGI MUQADDAS QADAMJOLAR

**Durdona Mashrabaliyeva**

*NamDU, Tarix yo'nalishi 4- bosqich talabasi*

**Umida Zaripboyeva**

*NamDU, Tarix yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada Xorazm viloyatining qadimiy va navqiron Hazorasp tumanida joylashgan muqaddas qadamjolar va ularning tarixi haqida ma'lumot beriladi.*

**ANNOTATION:** *This article provides information about the holy places and their history located in the ancient and modern Hazorasp district of Khorezm region.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье представлена информация о святых местах и их истории, расположенных на территории древнего и современного Хазараспского района Хорезмской области.*

**KALIT SO'Z VA IBORALAR:** *Xorazm viloyati, Hazorasp, Said ibn Abu Vaqqos maqbarasi, "O'tmishdan qolgan yodgorliklar", Qozi Xoji bobo maqbarasi, Shohbobo qabristoni, Avliyo Aranchi bobo qabri.*

Xorazm vohasi hayoti va tarixida juda katta rol o'ynagan Hazorasp qal'asi bir vaqtlar katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy markaz bo'lgan. Qal'aning qachon barpo etilganligi haqida aniq yozma ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Hattoki, qadimshunos olimlarimizning ko'p yillik arxeologik tadqiqotlari ham birorta aniq xulosa chiqarishga asos bo'la oladigan dalilni bermadi. Shunga qaramasdan, bir qator tadqiqotchilar tomonidan Hazoraspning qadimiy o'rni deb tahmin qilinayotgan – zardushtiylik dinining dastlabki muqaddas olovi – "Aturasp" yoqilgan qal'aning taxminiy yoshi – 3000 yilga yaqin degan fikrlar ilgari surilmoqda<sup>26</sup>.

Hazoraspning eng qadimiy yozma ma'lumotlari Abu Rayhon Beruniyning "O'tmishdan qolgan yodgorliklar" asarida ma'lumotlar berilgan, mashhur tarixchi al-Taban Xorazmda 712-yilda arablar tomonidan bosib olingan uchta yirik shahar – Got, Gurganj va Hazorasp bo'lganligini ta'kidlaydi, shuningdek al – Istaxriyning asarida ham Hazorasp haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi<sup>27</sup>.

Qadimiy Hazorasp tumani ko'hna qadamjolariga juda boy hisoblanadi. Ulardan birinchisi Said ibn Abu Vaqqos maqbarasidir. Said Vaqqos maqbarasi Xorazm viloyatining Pitnak shahrida joylashgan. Maqbara payg'ambar Muhammadning qarindoshi va u bilan birga Madinaga muhojirlikka ketgan arbob Said Vaqqos nomi bilan bog'liq. 673-yilda Qadis yaqinidagi eronliklar bilan bo'lgan jangda lashkarboshi sifatida shuhrat qozongan.

Said Vaqqos yashagan davrda arablar hali Xorazmni istilo qilmaganlari sababli, uning qabriga xotira sifatida maqbara qurilgan deb hisoblansa bo'ladi. Ammo ayrim

<sup>26</sup> <http://xorazmiy.uz>

<sup>27</sup> G'afforov Yarash Halilovich. Tarix sahifalari Xazorasp. // XALQARO SCIENTIFIC & TECHNOLOGY RESEARCH JURNALI, 6 JIM, 02 – SAN, 2020.



ma'lumotlarga qaraganda, Said Vaqqos Pitnak qishlog'iga kelib, Xorazmda Islom dinini targ'ib qilishni boshlagan. Birinchi avliyo deb ham hisoblangan. Boshqa bir rivoyatga ko'ra, Said Vaqqos arab millatiga mansub bo'lib, VIII asrlarda Xorazmda islom dinini targ'ib qilish uchun yuborilgan ulamolardan biri bo'lgan. Said Vaqqos Xorazmga kelib Islom dinini targ'ib qilgan, madrasa ochib, yoshlarag ta'lim bergan. Hayot davrida aholi unga qo'l berib, e'tiqod qilganlar. Vafotidan keyin uni o'zi yashagan maskan – Pitnakka dafn qilishgan va tez orada uning qabri ziyoratgohga aylangan.

Bundan tashqari Hazorasp Xorazmning sharqiy darvozasi hisoblanadi. Shuning uchun bo'lsa kerakki, sharqning mumtoz shoirlaridan biri kuyidagi misralarni yozib qoldirgan:

*Samarqand saykali ro'yi zamin ast*

*Buxoro quvvati islomidin ast*

*Hazorsb qal'ai qadimu maxkam*

*Xivak firdavsi rabbil olamin ast*

Darhaqiqat, shunday bo'lgan. Manbashunos tarixchi olimlar Hazorasp atamasi ma'nosini turlicha ta'riflaydilar.

Xalq orasida tarqalgan rivoyatlarda Hazorasp - “Ming ot” yoki “Ming otiqlar diyori” sifatida talqin etiladi. Qadimiy qo'lyozma Qal'a XIX asr o'rtalarida mamlakat poytaxti Xiva bilan raqobatlasha oladigan buyuk istehkom, yirik savdo va madaniy markaz darajasiga ko'tarila olgan. Bu haqda Ogahiyning “Hazorasb” nomli qasidasida quyidagi satrlarni o'qish mumkin:

*Darvozasi behisht eshigidek tarabafzo,*

*Iqboli baxt onda ikki posbon erur,*

*Gar yo'q jahonda misli oning lek fayz aro,*

*Ul bir latif jismu xazorasb jon erur<sup>28</sup>.*

Shuningdek Qozi Xoji bobo maqbarasi – Xazorasp tumani Muxomon qishlog'ida Shohbobo qabristonida joylashgan bo'lib, uning asl ismi Shayx Latif Xorazmiydir. Qozi Xoji boboning hayotlari 1552 – 1637-yillarag to'g'ri keladi<sup>29</sup>. Qozi Hoji bobo o'zlarining halol mehnati, mustahkam e'tiqod va ibodatlari bilan el-yurt orasida juda katta hurmat-e'tiborga sazovor inson hisoblangan. Qozi hoji bobo qirq yoshlarida haj amalini ado etgan. U kishining hayotlari Muhammadxon va Isfandiyorxon hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Isfandiyorxon ma'lum bir vaqt ichida o'z poytaxtini Hazorasp qal'asiga ko'chirib, to 1643-yilgacha, ya'ni Abulg'oziy Bahodirxon olgunga qadar xonlik qilgan. Qozi Hoji hazratlari hazratlari Isfandiyorxon saroyida qozilik lavozimida ishlagan. Har bir jinoiy ish yoki chigal da'volarni adolat bilan sha'riy hal etib, xalq orasida katta obro'- e'tiborga sazovor bo'lgan. Qozi bobo 1637-yilda vafot etgan va Shoh bobo qabristoniga dafn qilingan. Aholi Qozi Xoji boboning qabrini muqaddas bilib, uning ustiga gumbaz, xonaqoh, imorat qurganlar.

Avliyo Aranchi boboning qabri – Xorazm viloyatining Tuyamo'yin yaqinida – o'zanida maxsus orolchada joylashgan. Bu muhtaram zot XV asrlarda daryoda kemachilik qilgan. Aranchi bobo tajribali darg'alardan biri bo'lib, insonlarning hojatini chiqarib, katta savob

<sup>28</sup> <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/399>

<sup>29</sup> Ахмедов А. Хусайн бобо тарихи. – Т., 2006. – Б. 14.



egasi bo'lgan. Aranchi bobo vafot qilganidan keyinu kishini daryo qilishgan. Rivoyatlarga qaraganda, bu muhtaram zot kemachi – darg'alarining Piri hisoblangan. Shuningdek, Aranchi bobo daryo homiylari nomiga qurbonliklar berib turiladigan joy sifatida qadimdan ma'lum bo'lgan. Bu yerda yig'ilgan din peshvolari, yirik amaldorlar duo va asosiy marakadan so'ng, maxsus so'yilgan bir necha ho'kiz go'shtlarini daryoga tashlashgan deyishadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1827-yilda Polvon kanalining bosh inshooti – Toshsoqadan ilk bor suv o'tkazilishi munosabati bilan Xiva xoni Olloqulixon katta bir ho'kizni so'yib, Arancha boboga qurbonlik qilgan<sup>30</sup>.

Xazrati Abul Ibn Marjon qabri – Xorazm viloyati, Xazorasp tumani, Pitnak shaharchasida dehqon bozori yaqinida joylashgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Abul Ibn Marjon arab lashkarboshisi bo'lib, haqiqiy ismi Abul al Maxjindir. VIII asrlarda Xorazmga Islom dinini tarqalishida ishtirok etgan va Pitnak qishlog'iga dafn etishgan. Pitnak nomining kelib chiqishi hikoyalarni ham Abul Marjon bilan bog'laydilar. Hikoyada payg'ambarimiz Abul Marjonning uzoq vaqt dom-daraksiz ketganligidan bezovta bo'lib, sahobalaridan Sad Vaqqosni Xorazmga yuboradi. Xorazmga kelgan Sad Vaqqos Abul Marjonning Jayhun daryosi sohilidagi bittagina obod zaminda vafot etganligi va shu yerda dafn etilganligini bilib, payg'ambarimiz huzuriga qaytadi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhi vassalom sahobasining vafot etganidan chuqur qayg'uga tushib, Sad Vaqqosni Abul Marjon vafot etgan joyga hokim etib tayinlaydi hamda Nurmuhammad va Mir Muhammad pir kabi sarkardalarni unga qo'shib yuboradi va shu bittagina joyni Pitnak deb atashni buyurgan ekan<sup>31</sup>.

Muzrobshoh Xorazmiy maqbarasi – Hazorasp tuman Muxomon qishlog'ida qabristonida joylashgan bo'lib, VIII asrda Xorazmda yashagan hukmdor Muzrabshoh xotirasiga qurilgan maqbara. Asl ism Abu Muharram Muhammad Muzrobshoh. Maqbara bir xonadan iborat bo'lgan to'rt burchakli va bir gumbazli. O'lchovi: 7.3 x 4.9 m. Muzrobshoh xotirasiga o'rnatilgan yana – Darg'on shahrida ham mavjud. Abu Muharram Muhammad Muzrobshoh Xorazmiy VIII asr o'rtalarida Xorazmda hukmronlik qilgan va Hazoraspni o'ziga poytaxt qilgan. Sarkarda Abu Muslim qo'shini tarkibida faoliyat ko'rsatib, qahramonlik na'munalarini namoyish etgan. Abu Muharram Muhammad Muzrobshoh Xorazmiy 775-yilda Hazoraspda vafot etadi va o'sha yerda dafn qilinadi. Muzrobshoh Xorazmiyning hayoti va faoliyati haqida qiziqarli ma'lumotlar juda oz uchraydi. Muzrobshoh Xorazmiyning hayoti va faoliyati taniqli sharqshunos olim Abdulla Ahmedovning "Xorazm" nashriyotida 2015-yilda chop qilingan "Xazrati Shohpir" deb nomlangan kitobida biq qator qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Bugungi kunda Muzrobshoh Xorazmiy dafn qilingan joy muqaddas ziyoratgoh sanaladi.

Bugungi kunda Xorazm viloyati Xazorasp tumanidagi bu ziyoratgohlarning barchasiga alohida e'tibor berilib, davlat muhofazasiga olingan.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tish mumkinki, yurtimizda saqlanib kelayotgan ziyoratgoh va qadamjolarini asrash barchamizning burchimizdir. Chunki, ularda xalqning ruhiyati, ma'naviyati, qo'yinki o'zligi aks etib turibdi. Shu bois biz ularni xalq

<sup>30</sup> Махмудов М. Хоразм муқаддас замин. – Урганч, 2006. – Б.78.

<sup>31</sup> Курбонбоев С. Питнак тарихи. – Урганч: "Хоразм", 2001. – Б.8.



ma'naviyatining ko'zguna aks etamiz. Istiqloq sharofati bilan o'zining buyuk kelajagini yaratish yo'lida mehnat qilayotgan xalqimizning haqiqati o'z oldiga qo'ygan maqsadi kabi boy va qadim o'tmish borligini, umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo'lgan o'ziga xos urf-odat, an'analarga ega ekanligini o'rganish, shunga doir tegishli tadqiqotlarni olib borish bugungi avlod uchun juda muhim bo'lib, yurtimizning yanada ravnaq topishiga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://xorazmiy.uz>
2. G'afforov Yarash Halilovich. Tarix sahifalari Xazorasp. // XALQARO SCIENTIFIC & TECHNOLOGY RESEARCH JURNALI, 6 JIM, 02 – SAN, 2020.
3. Axmedov A. Xusayn bobo tarixi. – T., 2006.
4. Maхмудов М. Хоразм муқаддас замин. – Урганч, 2006.
5. Қурбонбоев С. Питнак тарихи. – Урганч: “Хоразм”, 2001.
6. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/399>